


## TOSHKENT VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2020-yil yanvar-mart)

Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o‘z ta‘sirini o‘tkazadi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o‘shishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko‘proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo‘ladi.


Hukumatning bu borada so‘nggi yillarda amalga oshirayotgan eksportni rag‘batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta‘minlash maqsadida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

2020-yilning yanvar-mart oylarida viloyatda tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 1 026,3 mln. AQSh dollariga yetdi va 2019-yilning shu davriga nisbatan 96,0 % ni tashkil etdi.




TSAda eksport hajmi 357,9 mln. AQSh dollariga (o‘zgarish sur‘ati – 77,6 %) va import hajmi 668,4 mln. AQSh dollariga (o‘shish sur‘ati – 109,9 %) yetdi. Hisobot davrida 310,5 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

**TASHQI SAVDO  
AYLANMASI  
DINAMIKASI**  
(mln. AQSh  
dollari)



So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishni, eksportni qo‘llab-quvvatlash, import o‘rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida sezilarli o‘zgarishga erishildi.

**TASHQI SAVDO  
AYLANMASI-  
NING O‘SISH  
SUR‘ATLARI**  
(2019-yil  
yanvar-martga  
nisbatan,% da)



**TOSHKENT  
VILOYATINING  
TASHQI SAVDO  
AYLANMASIDA  
ULUSHI  
YUQORI  
BO'LGAN  
DAVLATLAR  
(2020-yil  
yanvar-mart,  
mln. AQSh  
dollari)**


Davlatlar nomlari	TSA	Eksport	Import	Ulushi, % da
Kanada	174,7	-	174,7	17,0
Turkiya	161,4	160,7	0,7	15,7
Ruminiya	147,2	0,1	147,2	14,3
Qirg'iziston Respublikasi	115,8	4,4	111,5	11,3
Makedoniya Respublikasi	54,1	-	54,0	5,3
Rossiya	53,3	53,3	-	5,2
Qozog'iston	37,3	29,6	7,6	3,6
Gonkong	32,0	-	32,0	3,1
B.A.A.	28,5	26,7	1,8	2,8
Ukraina	26,8	6,4	20,3	2,6
Vengriya	23,2	0,1	23,2	2,3
Afg'oniston	19,1	19,1	0,1	1,9
Xitoy Xalq Respublikasi	18,0	17,8	0,2	1,8
Tojikiston	13,2	11,0	2,2	1,3
Indoneziya	11,7	1,1	10,6	1,1
Tailand	9,3	-	9,3	0,9
Lyuksemburg	6,9	-	6,9	0,7
Ispaniya	6,3	0,1	6,2	0,6
Latviya	5,4	0,1	5,3	0,5
Irlandiya	5,2	-	5,2	0,5

Shuningdek, qo‘shni davlatlar bilan o‘zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni iqtisodiy-ijtimoiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko‘rish mumkin.

Viloyatda tashqi savdoni qo‘llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo‘yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2020-yilning yanvar-mart oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 45,0 % ni tashkil etdi hamda tashqi savdo aylanmasi 2019-yilning shu davriga nisbatan 102,0 % ni tashkil etdi.

Boshqa xorijiy davlatlarning viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2019-yilning yanvar-mart oylarida 57,7 % ni, 2020-yilning ushbu davrida tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 55,0 % ni tashkil qilgan bo‘lib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 8,4 % ga kamaydi.


**TASHQI SAVDO  
AYLANMASIDA  
MDH MAMLA-  
KATLARI VA  
BOSHQA  
XORIJIY DAV-  
LATLARNING  
HAJMLARI  
(2020-yil  
yanvar-mart,  
mln. AQSh  
dollari)**



MDH davlatlaridan Rossiya, Qozog‘iston va Tojikiston bilan faol tashqi savdo balansi hamda boshqa davlatlardan (qo‘shni davlatlardan tashqari) esa Turkiya, Birlashgan Arab Amirliklari va Xitoy Xalq Respublikasi bilan faol tashqi savdo balansi kuzatilganini ko‘rish mumkin.

Boshqa davlatlardan TSAda eng yuqori ulush Kanada, Turkiya, Ruminiya va Makedoniya Respublikasi davlatlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

**TASHQI SAVDO  
AYLANMASIDA  
MDH MAMLA-  
KATLARI VA  
BOSHQA  
XORIJIY DAV-  
LATLARNING  
HAJMLARI  
DINAMIKASI**  
(yanvar-mart,  
mln. AQSh  
dollari)




## TOSHKENT VILOYATINING EKSPORTI (2020-yil yanvar-mart)

Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o‘shishiga ko‘maklashadi va bu o‘z navbatida ma’lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlarni nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar eksporterlar tomonidan 357,9 mln. AQSh dollari qiymatdagi (2019-yilga nisbatan 77,6 % tashkil etdi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta’minlandi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,6 % ni tashkil etib, bular asosan qora va rangli metallar (58,5 %), boshqa turdagi tovarlar (23,9 %), oziq-ovqat mahsulotlari (9,5 %), paxta tolasi (2,7 %), kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (3,2 %) shuningdek, mashina va uskunalar (1,9 %) guruhlariga to‘g‘ri kelmoqda.

**EKSPORT  
TARKIBI  
(2020-yil  
yanvar-mart,  
mln. AQSH  
dollari)**



**EKSPORT  
TARKIBI  
MDH VA  
BOSHQA  
XORIJIY  
DAVLATLAR  
KESIMIDA  
(2020-yil  
yanvar-mart)**


Tarkibi	Mln. AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
<b>Jami eksport</b>	<b>357,9</b>	<b>111,0</b>	<b>246,9</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:						
<b>Paxta tolasi</b>	9,6	0,02	9,6	2,7	0,02	3,9
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari</b>	34,1	21,5	12,6	9,5	19,4	5,1
<b>Kimyo mahsulotlari va buyumlari</b>	11,3	7,6	3,7	3,2	6,8	1,5
<b>Energiya manbalari va neft mahsulotlari</b>	-	-	-	-	-	-
<b>Qora va rangli metallar, ulardan tayyorlangan buyumlar</b>	209,2	18,6	190,6	58,5	16,8	77,2
<b>Mashina va asbob-uskunalar hamda ularning qismlari</b>	6,7	3,3	3,4	1,9	3,0	1,4
<b>Xizmatlar</b>	1,4	0,5	0,9	0,4	0,4	0,4
<b>Boshqalar</b>	85,6	59,5	26,1	23,8	53,6	10,5

2020-yilning yanvar-mart oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida sezilarli o'zgarishlar qayd etilmadi, biroq shuni ta'kidlash joizki, 2019-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan, oziq-ovqat mahsulotlari hamda kimyo mahsulotlari va buyumlarida o'sish kuzatildi.

**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI-NING O'SISH SUR'ATLARI (2020-yil yanvar-mart, % hisobida)**

Tarkibi	2019-yil yanvar-martga nisbatan, % hisobida		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
<b>Jami</b>	<b>77,6</b>	<b>80,5</b>	<b>76,4</b>
shu jumladan:			
Paxta tolasi	14,0	35,1	14,0
Oziq-ovqat mahsulotlari	134,4	131,3	140,0
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	169,6	161,2	189,4
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	-	-	-
Qora va rangli metallar, ulardan tayyorlangan buyumlar	77,1	33,6	88,2
Mashina va asbob-uskunalar	60,6	84,7	47,4
Xizmatlar	57,0	90,8	48,1
Boshqalar	113,4	104,5	140,4

**VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2020-yil yanvar-mart)**





**MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI**

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismidan biri bo'lgan 21,5 mln. dollar qiymat ega 47,3 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot eksport qilingan. Bu 2019-yilning shu davriga nisbatan qiymatda – 4,2 % va naturada – 2,2 barobar o'sgan. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 15,6 mln. AQSh dollariga teng 41,3 ming tonnadan ortiq sabzavot, shuningdek 3,3 mln. AQSh dollari qiymatidagi 3,2 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi (natura ko'rinishidagi o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan mos ravishda 2,1 va 2,6 barobarga o'sgan).

**Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti**

(yanvar-mart, 2020-y.)

**MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI**  
(yanvar-mart, mln. AQSh dollari)




Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2020-yilning yanvar-mart oylarida meva va rezavorlar hamda sabzavotlarning eksport hajmi 18,9 mln. AQSH dollariga teng bo'lib, umumiy eksportdagi ulushi 5,3 % ni tashkil etdi.

## TOSHKENT VILOYATINING IMPORTI (2020-yil yanvar-mart)

Respublikada import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarishni rag'batlantirish va ishlab chiqarishni mahalliyashtirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarga qaramasdan so'nggi yillarda import hajmi oshib kelayotganligini kuzatish mumkin. Jumladan, hisobot davrida import hajmi 668,4 mln. AQSh dollari (2019-yilning shu davriga nisbatan 109,9 %) tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush mashina va asbob-uskunalar hamda ularning qismlari (35,2 %), boshqa turdagi tovarlar (27,0 %), qora va rangli metallar (13,3 %), oziq-ovqat mahsulotlari (13,0 %) hamda kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (6,8 %) hisobiga to'g'ri keldi.

**IMPORT  
TARKIBI  
(2020-yil  
yanvar-mart,  
mln. AQSH  
dollari)**



Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2020-yilning yanvar-mart oylarida import qilingan tovarlar hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 60,3 mln. AQSh dollariga ko'payib 668,4 mln. AQSh dollarini tashkil etdi, xizmatlar importi esa 7,9 mln. AQSh dollarga yetdi.

**MDH  
VA BOSHQA  
XORIJIY  
DAVLATLAR-  
DAN IMPORT  
TARKIBI  
(2020-yil  
yanvar-mart)**

Tarkibi	mln. AQSh dollari			umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
<b>Jami import</b>	<b>668,4</b>	<b>350,5</b>	<b>317,9</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari	86,9	68,9	18,0	13,0	19,7	5,7
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	45,3	9,9	35,4	6,8	2,8	11,1
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	24,0	23,8	0,2	3,6	6,8	0,1
Qora va rangli metallar, ulardan yasalgan buyumlar	88,7	51,7	37,0	13,3	14,8	11,6
Mashina va asbob-uskunalar	235,5	42,6	192,8	35,2	12,2	60,7
Xizmatlar	7,9	1,4	6,5	1,2	0,4	2,1
Boshqalar	180,1	152,2	28,0	26,9	43,3	8,7


Importning eng katta ulushi, jumladan, boshqa turdagi tovarlar (43,4 %), oziq-ovqat mahsulotlari (19,7 %), shuningdek qora va rangli metallar (14,8 %) MDH mamlakatlariga to‘g‘ri keladi, boshqa xorijiy mamlakatlardan esa eng katta ulush mashina va asbob-uskunalar (60,7 %), qora va kimyo mahsulotlari va buyumlari (11,1 %) hissasiga to‘g‘ri keladi.

**MDH  
VA BOSHQA  
XORIJIY  
DAVLATLARDAN  
IMPORTNING  
O‘SISH  
SUR‘ATLARI  
(2020-yil  
yanvar-mart,  
% hisobida)**

Tarkibi	2019-yil shu davriga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
<b>Jami</b>	<b>109,9</b>	<b>111,4</b>	<b>108,4</b>
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari	63,2	79,7	35,2
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	87,9	54,6	106,0
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	4,2 m.	4,4 m.	54,1
Qora va rangli metallar, ulardan tayyorlangan buyumlar	91,2	64,6	2,1 m.
Mashina va asbob-uskunalar	138,2	2,2 m.	127,7
Xizmatlar	98,0	134,1	92,8
Boshqalar	130,8	145,9	83,8

2020-yil yanvar-mart oylarida import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki, 2019-yilning shu davriga nisbatan mashina va asbob-uskunalar hamda ularning qismlari importining ulushi 28,0 % dan 35,2 % gacha o'sdi, oziq-ovqat mahsulotlari va kimyo mahsulotlari importining ulushi esa 22,6 % dan 13,0 % ga va 8,5 % dan 6,8 % ga kamaydi.

**VILOYAT  
IMPORTIDA  
ASOSIY  
HAMKOR  
DAVLATLAR-  
NING ULUSHI  
(2020-yil  
yanvar-mart,  
% hisobida)**



Shulardan 7 ta eng yirik bo'lgan Kanada, Ruminiya, Qirg'iziston Respublikasi, Makedoniya Respublikasi, Gonkong, Vengriya va Ukraina hamkor davlatlaridan jami import hajmi 562,9 mln. AQSh dollariga teng bo'lib, bu umumiy import hajmining 84,2 % ini tashkil qiladi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi  
Tel.:(71) 230-86-59**